

**“O‘zbekko‘mir”AJda davlat xaridlari ustidan
nazoratni tashkil etish bo‘yicha
USLUBIY QO‘LLANMA**

1. Umumiy qoidalar

1. Davlat xaridlari ustidan nazoratni tashkil etish bo‘yicha **uslubiy qo‘llanma** (*keyingi o‘rinlarda - Uslubiy qo‘llanma*) “O‘zbekko‘mir”AJda (*keyingi o‘rinlarda - jamiyat*) Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens-nazorat xizmati uslubiy jihatdan ta‘minlash uchun mo‘ljallangan.

2. **Uslubiy qo‘llanmaning maqsadi** “O‘zbekko‘mir”AJning Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens-nazorat xizmati va Ichki audit bo‘limlari tomonidan davlat xaridlari ustidan nazoratni amalga oshirish jarayonida qo‘llaniladigan bajarish uchun tavsiya etiladigan metodlarni (usullarni), tartib-taomillarni belgilashdan iborat.

Zarur hollarda Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens-nazorat xizmati tomonidan nazorat tadbirlarini o‘tkazishga tegishli “O‘zbekko‘mir”AJning maxsus buyrug‘i (farmoyishi) asosida Ichki audit, Markaziy buxgalteriya va boshqa bo‘limlarning mutaxassislari ham jalb etilishi mumkin.

3. Uslubiy qo‘llanmada quyidagilar belgilangan:

davlat xaridlari ustidan nazorat qilish tushunchalari, vazifalari, predmeti va obyektlari;

davlat xaridlari ustidan nazoratni amalga oshirish uchun axborotning asosiy manbalari;

davlat xaridlarini nazorat qilish bosqichlari, yo‘nalishlari va ularning mazmuni;
xaridlar uchun rejalashtirilayotgan xarajatlar zarurligini asoslashda **korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olishga** bo‘lgan ehtiyojni hisobga olgan holda **xaridlar samaradorligini kompleks baholashning** mazmuni va tartibi;

davlat xaridlari ustidan nazorat qilish natijalaridan foydalanish va ularni amalga oshirish tartibi.

4. Uslubiy qo‘llanmada qo‘llanilgan asosiy tushunchalar O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O‘RQ-684-son “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasida belgilangan tushunchalarga mos keladi.

2. Davlat xaridlarini normativ-huquqiy tartibga solish.

5. Quyidagilar davlat xaridlarini o‘tkazish normalari va qoidalarini, ushbu jarayonga doir tartib-taomillar, muddatlar va talablarni belgilovchi asosiy hujjatlar hisoblanadi:

1) O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-aprelda qabul qilingan “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi 684-sonli Qonuni - davlat xaridlari sohasidagi umumiy prinsiplar va qoidalarni belgilovchi asosiy qonun.

2) O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonuni - korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonun, shu jumladan davlat xaridlari sohasini ham qamrab oladi va tartibga soladi.

3) O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi O‘RQ-931-son “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni - manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonun, shu jumladan davlat xaridlari sohasini ham qamrab oladi va tartibga soladi.

4) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyuldagi “Davlat xaridlari shaffofligini ta‘minlash va samaradorligini oshirish doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5171-son qarori - davlat xaridlari va monitoring tizimiga dolzarb o‘zgartirish va qo‘shimchalarni o‘z ichiga oladi.

5) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-dekabrda “Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va davlat xaridlari jarayoniga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4544-son qarori - davlat xaridlari va monitoring tizimini takomillashtirishga qaratilgan muhim norma va qoidalarni o‘z ichiga oladi.

6) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 276-son qarori - elektron xarid, hadli bitimlar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalarning tartib-taomillarini, turlarini va ularni o‘tkazish mezonlarini hamda davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnomalarning yagona reestrini yuritish qoidalarini belgilaydi.

7) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrda “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3953-son qarori - Qonun amal qilishi tatbiq etilmaydigan holatlarni, shu jumladan xarid komissiyalari tomonidan eng yaxshi takliflarni tanlab olish va favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzishni o‘z ichiga oladi.

8) “Maxsus axborot portali operatorining davlat xaridlarini tashkil etish hamda o‘tkazish borasidagi faoliyati to‘g‘risida”gi 2018-yil 15-maydagi 186-son nizom - O‘zbekistonda davlat xaridlarini tashkil etish va o‘tkazishda ishtirok etadigan maxsus axborot portali operatorining ishlashi uchun qoidalar va talablarni belgilaydi.

9) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi “Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyihaoldi, davlat xaridiga doir tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari va texnik topshiriqlar hamda shartnomalarni

ekspertizadan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-332-son qarori - investitsiya va infratuzilma loyihalarining loyihaoldi hujjatlarini, shuningdek, xarid hujjatlarini va davlat xaridiga texnik topshiriqni ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazishga oid yangi qoidalarni belgialydi.

10) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyuldagi "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6019-son Farmoni O'zbekiston iqtisodiyotida raqobatni rivojlantirish va davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha keng qamrovli davlat dasturining bir qismi bo'lib, raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishga qaratilgan.

11) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 1-maydagi PQ-4302-son Qarori. Ushbu qarorga muvofiq, davlat buyurtmachilari tomonidan import tovarlarni xarid qilish to'g'risidagi niyatlar davlat xaridlari maxsus axborot portaliga qo'yilishi kerak. Uch va undan ortiq mahalliy ishlab chiqaruvchilar mavjud bo'lgan taqdirda, davlat xaridlari mahalliy ishlab chiqaruvchilar o'rtasida amalga oshirilishi mumkin.

12) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-yanvardagi "Davlat xaridlarini amalga oshirishda xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yanada takomillashtirish choralari to'g'risida"gi 37-son qarorida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda davlat xaridlari doirasida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari tavsiflangan.

13) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-yanvar kunidagi "Elektron onlayn-auksion va tanlovlarni tashkil etish hamda o'tkazish tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 18-son qarori bilan Davlat mulkini boshqarish agentligi huzuridagi "Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish markazi" DK tomonidan "E-auksion" elektron savdo maydonchasida elektron onlayn-auksionlar va tanlovlarni tashkil etish hamda o'tkazish tartibini belgilaydi.

14) O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyul kunidagi "Raqobat to'g'risida"gi O'RQ-850-sonli Qonuni raqobat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga taalluqlidir. Tovar yoki moliya bozorlarida raqobatni cheklashi va raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitida iste'molchilarning huquqlarini kamsitishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarni nazorat qilish va oldini olishga qaratilgan.

15) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyuldagi "Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5171-son qarori bilan davlat xaridlari to'g'risidagi qonundan istisnolar - ayrim tashkilotlar faoliyatining strategik ahamiyati tufayli davlat xaridlari to'g'risidagi qonunning ta'siriga tushmasligi belgilangan.

3. Davlat xaridlari ustidan nazoratning mazmuni

6. Davlat xaridlarini nazorat va monitoring qilish “O‘zbekko‘mir”AJning Korruptsiyaga qarshi kurashish va kompayens-nazorat xizmati va Ichki audit bo‘limlari tomonidan amalga oshiriladigan ichki nazoratning bir turi bo‘lib, uning maqsadi xaridlarni rejalashtirishning asoslanganligi, xaridlarning amalga oshirilishi va samaradorligini baholash, xaridlar natijalarini tahlil qilish va baholash, xaridlarni amalga oshirish maqsadlariga erishish, shuningdek, davlat xaridlari sohasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy xavflarning oldini olishdan iborat.

“O‘zbekko‘mir”AJ ehtiyojlarini ta‘minlash jarayonida byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lar xarajatlarini, xaridlarni rejalashtirishning (Buyurtmaning) asoslilikini, shu jumladan xarid narxining asoslilikini, mazkur xaridlarni amalga oshirishning amalga oshirilishi va samaradorligini hisobga olgan holda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasini baholash davlat xaridlarini nazorat qilishning yakuni bo‘lishi kerak. Bunda kontraktlar shartlarining muddatlari, kontraktlar hajmi, narxi, xarid qilinayotgan tovarlar, ishlar, xizmatlar soni va sifati bo‘yicha bajarilishi, shuningdek narxni shakllantirish tartibi va kontraktlarni boshqarish tizimining samaradorligi baholanishi lozim.

7. Davlat xaridlarini nazorat qilish vazifalari:

tuzilishi rejalashtirilayotgan, tuzilgan va bajarilgan shartnomalar bo‘yicha xarid xarajatlarining qonuniyligi, maqsadga muvofiqligi, asoslanganligi (shu jumladan, xaridlarni asoslashni rejalashtirish jarayoni va xaridlarga bo‘lgan ehtiyojning asoslilikini tahlil qilish va baholash), o‘z vaqtida amalga oshirilganligi, samaradorligi va natijadorligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni tekshirish, tahlil etish va baholash (bundan buyon xarid xarajatlari deb yuritiladi);

davlat xaridlari sohasidagi og‘ishlar, qonunbuzarliklar va kamchiliklarni aniqlash, ularning sabablarini o‘rganish hamda ularni bartaraf etish va shartnoma tizimini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish.

Davlat xaridlarini nazorat qilish tahlil, tekshirish va baholash predmeti bo‘lgan kontraktlarning har biriga nisbatan davlat xaridlari sohasidagi buyurtmachining faoliyatining barcha bosqichlarini, ya’ni: tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlarini rejalashtirish bosqichini, xaridlarni amalga oshirish bosqichini, shu jumladan **davlat xaridlariga tanlov e‘lon qilish bosqichida, tanlov takliflarini baholash yakunlanish bosqichida**, shuningdek kontraktni tuzish va bajarish bosqichlarida xaridlarni dastlabki nazorat qilishni qamrab olishi kerak.

Izoh:

**Asosiy
bosqichlar**

Davlat xaridlari bosqichlarining tavsifi

- | | |
|-----------|--|
| 1-bosqich | <i>Buyurtmachi tomonidan byudjetning o'ziga xos xususiyatlari va mablag'larning kelib tushish vaqtini hisobga olgan holda bir yillik xaridlar rejasini tayyorlash.</i> |
| 2-bosqich | <i>Buyurtmachi tomonidan davlat xaridlari rejasidagi har bir xarid uchun tender (tanlov) hujjatlarini ishlab chiqish, xarid qilish metodini tanlash.</i> |
| 3-bosqich | <i>Tender e'lon qilish - tanlangan metodga qarab muayyan turdagi xaridni o'tkazish to'g'risidagi e'lon berish.</i> |
| 4-bosqich | <i>E'lon qilishdan manfaatdor bo'lgan tadbirkorlar tomonidan tender (tanlov) taklifini tayyorlash va uni belgilangan tartibda savdolar tashkilotchisiga yetkazish.</i> |
| 5-bosqich | <i>Buyurtmachi tomonidan tender (tanlov) takliflarini baholash va g'olibni aniqlash, belgilangan tartibda tegishli bayonnomalarni rasmiylashtirish.</i> |
| 6-bosqich | <i>Buyurtmachi tomonidan tender (tanlov) g'olibiga shartnoma tuzishni taklif qilish.</i> |
| 7-bosqich | <i>Shartnomaning bajarilish bosqichi.</i> |
| 8-bosqich | <i>Buyurtmachi va yetkazib beruvchining shartnoma bajarilishi uchun hisob-kitoblari.</i> |
| 9-bosqich | <i>Shartnomaning bajarilishi to'g'risida hisobot.</i> |

8. Davlat xaridlari sohasidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq "O'zbekko'mir" AJ mablag'laridan foydalanish jarayoni **davlat xaridlari ustidan nazorat** predmeti hisoblanadi.

9. Davlat xaridlari ustidan nazoratni amalga oshirish jarayonida "O'zbekko'mir" AJning Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens-nazorat xizmati va Ichki audit bo'limlari vakolatlari doirasida quyidagilar tekshiriladi, tahlil qilinadi va baholanadi:

xaridlarni rejalashtirish bosqichidan boshlab byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larni tashkil etish va ulardan foydalanish jarayoni;

xarid qilish xarajatlarining qonuniyligi, o'z vaqtida amalga oshirilishi, asoslanganligi, maqsadga muvofiqligi;

davlat xaridlari sohasida idoraviy nazorat tizimi;

davlat xaridlari sohasida buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladigan nazorat tizimi.

10. "O'zbekko'mir" AJning o'zi, uning tarkibiy bo'linmalari va davlat xaridlarini amalga oshirishga vakolatli barcha tizimosti tashkilotlar **davlat xaridlarini nazorat** qilish obyektlari hisoblanadi.

Nazorat tadbirlari doirasida buyurtmachilarning faoliyati ham, ular tomonidan tuziladigan kontrakt xizmatlari va xaridlarni amalga oshirish bo'yicha komissiyalar,

ular tomonidan jalb etiladigan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar (mavjud bo'lsa), ekspertlar, ekspert tashkilotlari va elektron platformalar faoliyati ham, shuningdek, davlat xaridlari sohasida idoraviy nazorat tizimining, buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladigan davlat xaridlari sohasida nazorat tizimining ishi ham baholanadi.

4. Davlat xaridlarini nazorat qilish uchun axborot manbalari

11. Davlat xaridlari ustidan nazoratni amalga oshirishda quyidagi axborot manbalaridan foydalanish tavsiya etiladi:

1) davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlari;

2) buyurtmachining ichki hujjatlari:

kontrakt xizmatini tashkil etish to'g'risidagi hujjat va u to'g'risidagi nizom yoki alohida tarkibiy bo'linma tashkil etmagan holda kontrakt xizmati funksiyalarini bajaruvchi buyurtmachi xodimlarining doimiy tarkibini tasdiqlovchi hujjat;

xaridlarni amalga oshirish bo'yicha komissiya (komissiyalar) ni tashkil etish va ularning ishini tartibga solish to'g'risidagi hujjat;

xaridlarni rejalashtirish, asoslash va amalga oshirish tartib-taomillarini tartibga soluvchi hujjat;

xaridlarning tasdiqlangan reja-jadvali;

tovarlar, ishlar, xizmatlarning ayrim turlariga nisbatan tasdiqlangan talablar (shu jumladan tovarlar, ishlar, xizmatlarning cheklangan narxlari) va (yoki) davlat organlari, davlat byudjetdan tashqari jamg'armalarini boshqarish organlari funksiyalarini ta'minlash uchun normativ xarajatlar;

buyurtmachi tomonidan davlat xaridlari sohasida nazoratni amalga oshirishni tartibga soluvchi hujjat;

davlat xaridlari sohasida nazorat o'tkazish maqsadlariga muvofiq boshqa hujjatlar va axborot;

3) davlat xaridlari sohasidagi axborot tizimlari, shu jumladan buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan va davlat xaridlari sohasidagi axborot tizimlariga joylashtiriladigan hujjatlar.

4) elektron maydonchalar va ularda joylashtiriladigan axborot, shu jumladan elektron maydonchada akkreditatsiya qilingan elektron auksion ishtirokchilarining reestrlari;

5) buyurtmachilarning rasmiy saytlari va ularda joylashtiriladigan ma'lumotlar, shu jumladan rejalashtirilayotgan xaridlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

6) tegishli nazorat va tekshiruvchi organlarining avvalgi tekshiruvlari natijalari, shu jumladan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Hisob palatasi va boshqa nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar natijalari;

7) huquqni muhofaza qiluvchi organlardan kontrakt tizimi to'g'risidagi qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishlari to'g'risida olingan ma'lumotlar;

8) tovarlar, ishlar, xizmatlar va boshqalarni ishlab chiqaruvchi kompaniyalarning internet-saytlari.

Nazorat tadbirini o'tkazish davomida bir vaqtning o'zida nazorat predmeti va obyektiga bevosita aloqador bo'lgan bir nechta axborot manbalaridan foydalanilishi mumkin.

Bunda nazorat obyektida bo'lishi kerak bo'lgan quyidagi minimal hujjatlar to'plamini hisobga olish zarur, ***xaridni amalga oshirish bosqichiga qadar:***

kontrakt xizmatini tashkil etish to'g'risidagi hujjat va u to'g'risidagi nizom yoki alohida tarkibiy bo'linma tashkil etmagan holda kontrakt xizmati funksiyalarini bajaruvchi buyurtmachi xodimlarining doimiy tarkibini tasdiqlovchi hujjat;

xaridlarni amalga oshirish bo'yicha komissiyalarni (komissiyalarni) tashkil etish va ularning ishini tartibga solish to'g'risidagi hujjatlar;

buyurtmachi tomonidan davlat xaridlari sohasida nazoratni amalga oshirishni tartibga soluvchi hujjat;

xaridlar reja-jadvali, shu jumladan kontraktning boshlang'ich (maksimal) narxini, yagona yetkazib beruvchi (pudratchi, ijrochi) bilan tuziladigan kontrakt narxini, yetkazib beruvchini (pudratchini, ijrochini) aniqlash usulini, shu jumladan xarid qatnashchilariga qo'yiladigan qo'shimcha talablarni asoslash;

xarid qilinadigan tovarlar, ishlar, xizmatlarning ayrim turlariga qo'yiladigan talablar (shu jumladan tovarlar, ishlar, xizmatlarning cheklangan narxlari) va (yoki) funksiyalarni ta'minlash uchun normativ xarajatlar;

kontraktlarning boshlang'ich (maksimal) narxlari asoslanganligini tasdiqlovchi hujjatlar;

kontrakt tuzilgunga qadar (avvalgi hujjatlarga qo'shimcha ravishda):

xaridlarni amalga oshirish to'g'risidagi xabarnomalar, xaridlar to'g'risidagi hujjatlar, kontraktlar loyihalari, shu jumladan ularga o'zgartirishlar va tushuntirishlar; yetkazib beruvchi (pudratchi, ijrochi) ning ajrimini bekor qilish to'g'risidagi qaror;

xaridlarni amalga oshirish davomida tuzilgan bayonnomalar, shu jumladan xarid ishtirokchilarini yetkazib beruvchini (pudratchini, ijrochini) aniqlashda ishtirok etishdan chetlashtirish yoki yetkazib beruvchini (pudratchini, ijrochini) aniqlash tartib-taomilining g'olibi bilan kontrakt tuzishni rad etish to'g'risidagi qarorlar;

tanlovda ishtirok etish uchun buyurtmanomalar, kotirovkalar so'rovi, takliflar so'rovi va (yoki) elektron hujjatlar shaklida berilgan bunday buyurtmanomalardan foydalanish imkoniyatini ochish uchun buyurtmanomalar solingan konvertlarni ochishning audioyozuvlari;

xarid ishtirokchilarining buyurtmanomalari;

xarid ishtirokchilaridan buyurtmalar ta'minoti kelib tushganligini tasdiqlovchi hujjatlar;

yagona yetkazib beruvchidan (pudratchidan, ijrochidan) xaridning asoslanganligi;

mahsulot yetkazib beruvchini (pudratchini, ijrochini) tanlovsiz aniqlashning asoslilikligi;

yagona yetkazib beruvchidan (pudratchidan, ijrochidan) xarid amalga oshirilgan taqdirda yetkazib beruvchini (pudratchini, ijrochini) aniqlashning boshqa usullaridan, shuningdek kontrakt narxidan va kontraktning boshqa muhim shartlaridan foydalanish mumkin emasligini yoki maqsadga muvofiq emasligini asoslovchi hisobotlar;

kontraktlar bajarilishining ta'minoti kelib tushganligini tasdiqlovchi hujjatlar;

bajarilgan kontraktlar bo'yicha (avvalgi hujjatlarga qo'shimcha ravishda):

tuzilgan kontraktlar (shartnomalar) va ularga o'zgartirishlar;

bekor qilingan kontraktlar (shartnomalar);

insofsiz yetkazib beruvchidan (pudratchidan, ijrochidan) neustoyka (penya, jarima) undirishni, insofsiz yetkazib beruvchidan (pudratchidan, ijrochidan) kontrakt ijrosini ta'minlashni ushlab qolishni tasdiqlovchi hujjatlar;

tovarlar yetkazib berilganligini, ishlar bajarilganligini, xizmatlar ko'rsatilganligini va ulardan foydalanilganligini tasdiqlovchi hujjatlar;

tuzilgan kontraktlar shartlari o'zgartirilganligini va (yoki) bajarilmaganligini asoslovchi hujjatlar.

12. O'zbekistonda davlat xaridlari ustidan nazoratni amalga oshirish uchun hamma foydalanishi mumkin bo'lgan asosiy axborot manbalari:

O'zbekiston Respublikasi Davlat xaridlari maxsus axborot portali (**xarid.mf.uz**) - Moliya va iqtisodiyot vazirligining portali davlat xaridlari bo'yicha barcha axborotni birlashtiradi va tashqi elektron tizimlar bilan elektron hamkorlikni ta'minlaydi.

Davlat xaridlari elektron tizimi (**xarid.uzex.uz**) - davlat xaridlarining barcha turlari birlashtirilgan hamda tovarlar va xizmatlarning yagona milliy tasniflagichi joriy etilgan portal. Portalda shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiya bayonnomalari va qarorlari, davlat xaridlarida tovarlar va xizmatlarning yagona tasniflagichi hamda davlat xaridlari ishtirokchilari reytingi mavjud.

O'zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasi tomonidan davlat xaridlari bo'yicha elektron tanlov va tenderlar o'tkazish hamda tadbirkorlik subyektlarini ushbu jarayonga yanada faol jalb etish maqsadida ishga tushirilgan ixtisoslashtirilgan xaridlar portali (**etender.uzex.uz**). Yetkazib beruvchilar takliflarini baholash avtomatik ravishda oldindan belgilangan mezonlar bo'yicha amalga oshiriladi, bu g'oliblarni aniqlashning dastlabki bosqichlarida inson omilini istisno qiladi. Tanlov va tenderlar yakunlari bo'yicha qarorlar elektron bayonnoma shaklida rasmiylashtiriladi, g'oliblar bilan shartnomalar ham elektron shaklda tuziladi va shartnomalar reestriga kiritiladi.

Davlat xaridlarining elektron platformasi (**xt-xarid.uz**) ball usuli va eng past narx usulidan foydalangan holda savdolar o'tkazilishini ta'minlaydi. Tizim miqdor ko'rsatkichlarini avtomatik tarzda, sifat mezonlarini esa xarid komissiyasi a'zolari tomonidan masofadan turib, "onlayn" rejimida baholash imkonini beradi. Saytda

Yagona yetkazib beruvchilar reestri, Davlat xaridlari subyektlari reestri, Insofsiz yetkazib beruvchilar reestri, Shartnomalar reestri va Xaridlar rejasi ham mavjud.

“Shaffof qurilish” portali (**monitoring.mc.uz**) qurilish sohasida xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazish va infratuzilma xaridlari, shaharsozlik hujjatlari, ish hajmlari va moliyalashtirish manbalari, korxonalar, qurilish-pudrat tashkilotlari reytinglari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni e’lon qilish uchun mo’ljallangan.

Elektron kooperatsiya portali (**cooperation.uz**) mahalliy sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar, xomashyo va materiallarni sotib olish uchun mo’ljallangan.

O‘zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi sayti (**uzex.uz**). Platformada yangiliklar materiallari, barcha savdo platformalaridagi savdolar hajmi dinamikasi va “O‘zRTXB” AJda sotiladigan barcha tovar-xomashyo resurslarining joriy kotirovkalari to‘g‘risidagi tezkor ma’lumotlar mavjud. “O‘zRTXB” davlat xaridlari sohasida savdolarni tashkil etish va o‘tkazish uchun asosiy platformalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Iqtisodiyot va moliya vazirligi (**imv.uz**) sayti davlat xaridlarining umumiy qoidalari to‘g‘risidagi rasmiy axborotni, shuningdek, tegishli portallar va platformalarga havolalarni e’lon qiladi.

Korxona va tashkilotlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar taqdim etilgan O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy portali (**registr.stat.uz**) Ushbu portal yordamida O‘zbekistonda korxonaning egasi va rahbari kim ekanligi, ularning faoliyat turi, ustav fondining miqdori, yuridik manzili va bog‘lanish ma’lumotlarini bilib olish mumkin. Shunga o‘xshash ma’lumotlar ixtisoslashtirilgan portallarda (**orginfo.uz**, **uzorg.info** va boshqalar) taqdim etilgan bo‘lib, u yerda mulkdor yana qanday korxonalarga egalik qilishi yoki boshqarishini tekshirish mumkin. Bu davlat xaridlarida ishtirok etuvchi kompaniyalarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, ushbu portallar yordamida buyurtmachining takliflari rad etilgan yetkazib beruvchilarning kontaktlarini topish mumkin (savdolar bayonnomasida e’lon qilinadi).

5. Davlat xaridlari sohasida nazorat o‘tkazish bosqichlari

13. Davlat xaridlari sohasidagi nazorat uch bosqichni o‘z ichiga oladi:
tayyorgarlik bosqichi;
asosiy bosqich;
yakunlovchi bosqich.

14. Davlat xaridlari sohasida nazoratning tayyorgarlik bosqichi.

Davlat xaridlari sohasidagi nazoratning tayyorgarlik bosqichida nazorat predmeti va obyektlari oldindan o‘rganiladi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi, zarur ma’lumotlar va axborotlar to‘planadi, ularning natijalari bo‘yicha davlat xaridlari sohasidagi nazorat dasturi tayyorlanadi.

15. Nazorat predmeti va obyektining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish.

Nazorat predmeti va obyektining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish tekshirish masalalarini, uni o'tkazish usullarini aniqlash, nazorat predmeti va obyektini baholash mezonlarini (ko'rsatkichlarini) tahlil qilish va tanlash, shuningdek davlat xaridlari sohasida nazorat dasturini tayyorlash uchun zarur.

Ushbu ishni amalga oshirishda quyidagilar tavsiya etiladi:

nazorat predmeti va obyektining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda xaridlarni o'tkazishda qo'llaniladigan O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari ro'yxatini shakllantirish;

davlat xaridlari sohasida nazoratni amalga oshirish uchun axborot manbalarini belgilash, xaridlar to'g'risidagi zarur axborotni to'plash va dastlabki tahlilni amalga oshirish;

byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lardan samarasiz foydalanishning mavjud xavf-xatarlarini aniqlash va tahlil qilish.

16. Ochiq manbalardan ma'lumotlar va axborotlar yig'ish.

Tayyorgarlik bosqichida ma'lumotlar va axborotni yig'ish nazorat obyektlarining ochiq axborot tizimlaridagi xaridlari to'g'risidagi axborotni tahlil qilish va baholash, shuningdek davlat xaridlari sohasidagi nazorat predmetiga taalluqli hujjatlar va materiallarni boshqa ochiq manbalardan o'rganish orqali amalga oshirish tavsiya etiladi (jumladan, Davlat xaridlari maxsus axborot portali (**xarid.mf.uz**), elektron savdo maydonchalari (**etender.uzex.uz**, **xt-xarid.uz**, **cooperation.uz**, **Shaffof qurilish** va boshqalar), davlat xaridlari sohasidagi nazorat organlarining rasmiy saytlari, nazorat obyektlarining rasmiy saytlari, davlat statistikasi ma'lumotlari).

Ochiq manbalardan ma'lumotlar va axborotlar yig'ishda:

davlat xaridlari sohasidagi nazorat yakunlari bo'yicha nazorat harakatlari doirasida to'plangan dalillar asosida chiqarilgan xulosa va xulosalar tanqidiy tahlilga (ma'lumotlarning yetarliligiga) bardosh bera olishi uchun jarayonni tashkil etish;

xarid qilish xarajatlarining qonuniyligi, maqsadga muvofiqligi, asosliligi, o'z vaqtidaligi, samaradorligi va natijadorligini (axborotning ishonchliligi) kelgusida baholashda foydalanish uchun axborotning ishonchliligi va to'liqligini aniqlash.

17. Davlat xaridlari sohasida nazorat dasturini shakllantirish.

Nazorat obyektini dastlabki o'rganish natijalari bo'yicha davlat xaridlari sohasida nazorat o'tkazish dasturi loyihasi tayyorlanadi.

18. Davlat xaridlari sohasida nazoratning asosiy bosqichi.

Davlat xaridlari sohasidagi nazoratning asosiy bosqichida davlat xaridlari sohasidagi nazorat dasturi masalalariga muvofiq tuzilishi rejalashtirilayotgan, tuzilgan va bajarilgan kontraktlar bo'yicha xaridlar xarajatlarining qonuniyligi, maqsadga muvofiqligi, asoslanganligi, o'z vaqtidaligi, samaradorligi va natijadorligi to'g'risidagi axborot tekshiriladi, tahlil qilinadi va baholanadi, shu jumladan bevosita nazorat

obyektlarida o'tkazilgan nazorat bo'yicha hisobotni tayyorlash uchun zarur bo'lgan materiallar, hujjatlar, ma'lumotlar, haqiqiy ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish amalga oshiriladi. Ushbu bosqich natijalari bo'yicha dalolatnomalar, tekshirish natijalarini qayd etuvchi ishchi hujjatlar tuziladi, ular o'tkazilgan nazorat bo'yicha hisobot, xulosa, xulosa va tavsiyalar tayyorlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tekshirish doirasida, shuningdek, buyurtmachining tekshirilayotgan va (yoki) hisobot davridagi barcha xaridlari to'g'risidagi umumlashtirilgan ma'lumotlar xaridlar, kontraktlar, shartnomalar kesimida miqdor va qiymat ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda, shuningdek ishtirokchilarning berilgan va rad etilgan buyurtmalari ko'rsatilgan holda tahlil qilinadi.

Ushbu axborotni xaridni amalga oshirish usullari bo'yicha - raqobat usullari kesimida va yagona yetkazib beruvchidan (pudratchi, ijrochi) xaridlarni ko'rsatgan holda tuzish zarur.

19. Xarid qilish xarajatlarining maqsadga muvofiqligi va asoslilikini tekshirish, tahlil qilish va baholash.

Ushbu bosqichda xaridlar reja-jadvalini shakllantirishda tovarlar, ishlar, xizmatlar xaridini rejalashtirish bosqichida buyurtmachi tomonidan xaridning asoslanganligi tekshiriladi, rejalashtirilayotgan xaridning xaridlarni amalga oshirish maqsadlariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va davlat xaridlari sohasidagi kontrakt tizimi to'g'risidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiqligini tahlil qilish va baholash amalga oshiriladi.

Xarid qilish xarajatlarining maqsadga muvofiqligi deganda vazirlik (idora) yoki tashkilotning tasdiqlangan dasturlarning maqsadlariga erishish va tadbirlarni amalga oshirish, tegishli davlat organlarining belgilangan funksiyalari va vakolatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan asoslangan ehtiyojlarining mavjudligi tushuniladi.

Xaridlarga qilingan xarajatlarning asoslanganligi deganda, shu jumladan rejalashtirilayotgan xaridlarni, ularning hajmlari (miqdori) ni, shuningdek xarid qilinayotgan tovarlar, ishlar, xizmatlarning sifatiga, iste'mol xususiyatlariga va boshqa tavsiflariga, ularning zaruriyatiga qo'yiladigan talablarni me'yorlash qoidalaridan foydalangan holda asoslashning mavjudligi tushuniladi.

Nazorat tadbiri doirasida, shuningdek, buyurtmachi tomonidan xaridlarni rejalashtirish sifatini baholash, shu jumladan, dastlabki tasdiqlangan xaridlar reja-jadvaliga kiritiladigan o'zgartirishlar soni va hajmini tahlil qilish, shuningdek, yil davomida xaridlarning ritmliligini (xaridlarni teng taqsimlash) baholash maqsadga muvofiqdir.

20. Xarid qilish xarajatlarining o'z vaqtida amalga oshirilishini tekshirish, tahlil qilish va baholash.

Ushbu bosqichda tovarlar, ishlar, xizmatlar xaridlarini rejalashtirish, xaridlarni amalga oshirish, kontraktlarni tuzish va bajarish bosqichlarini hisobga olgan holda

buyurtmachi tomonidan xarid qilish xarajatlarining o'z vaqtida amalga oshirilishi tekshiriladi, kontrakt shartlarini minimal byudjet mablag'lari sarflagan holda bajarish uchun yetarli bo'lgan va maqsadlarga o'z vaqtida erishishni ta'minlaydigan xarid qilish muddatlarining asoslanganligi tahlil qilinadi va baholanadi.

Xarid qilish xarajatlarining o'z vaqtida amalga oshirilishi deganda buyurtmachining kontraktni amalga oshirish uchun yetarli bo'lgan muddatlarni belgilashi va ularga rioya etishi hamda xaridlarni zarur vaqtda va eng kam chiqimlar bilan amalga oshirish maqsadlariga erishishi tushuniladi.

Nazorat tadbiri doirasida ishlarning, xizmatlarning mavsumiyligi, tovarlarning, ishlarning, xizmatlarning ayrim turlarini ishlab chiqarish siklining davomiyligi va uzluksizligi, shuningdek, yetkazib beruvchi, pudratchi, ijrochiga kamchiliklarni bartaraf etish imkonini beruvchi tovarlar, ishlar va xizmatlarni qabul qilishni amalga oshirish uchun vaqt zaxirasining mavjudligini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

21. Xarid qilish xarajatlari samaradorligini tekshirish, tahlil qilish va baholash.

Ushbu bosqichda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilishni rejalashtirish, yetkazib beruvchilarni (ijrochilarni, pudratchilarni) aniqlash, kontraktlarni tuzish va bajarish jarayonida xarid qilish xarajatlari samaradorligini tekshirish va tahlil qilish amalga oshiriladi.

Xarid qilish xarajatlarining samaradorligi deganda, mavjud resurslardan samarali foydalanish, shuningdek davlat xaridlari sohasida kontrakt tizimi prinsiplariga rioya etilishini hisobga olgan holda, xarid qilish to'g'risidagi hujjatlarda ko'rsatilgan mezonlar asosida, bir vaqtning o'zida xaridlarni amalga oshirishning rejalashtirilgan maqsadlariga erishilgan holda, kontraktni bajarishning eng yaxshi shartlarini (xaridlarning boshqa ishtirokchilari bilan taqqoslaganda) ta'minlash tushuniladi.

Xaridlar xarajatlari samaradorligini baholashda quyidagi ko'rsatkichlarni qo'llash tavsiya etiladi (hisobot davri uchun nazorat obyekti bo'yicha ham, aniq xarid bo'yicha ham):

kontraktlarning boshlang'ich (maksimal) narxlarini shakllantirish va asoslash bosqichida byudjet mablag'larining potensial tejalishi - bu xaridlar reja-jadvalidagi kontraktlarning boshlang'ich (maksimal) narxlari bilan bir turdagi tovarlar, ishlar, xizmatlar uchun boshqa buyurtmachilar tomonidan belgilangan kontraktlarning o'rtacha narxlari yoki bir turdagi tovarlar, ishlar, xizmatlar uchun kontraktning o'rtacha bozor narxlari o'rtasidagi farqdir (tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatishning taqqoslanadigan shartlarini, shu jumladan xarid hajmi, kafolat majburiyatlari, yaroqlilik muddati va shu kabilarni hisobga olgan holda);

xaridlarni amalga oshirish (yetkazib beruvchilarni (ijrochilarni, pudratchilarni) aniqlash) jarayonida byudjet mablag'larini tejash - bu tuzilgan kontraktlar narxiga nisbatan kontraktlarning boshlang'ich (maksimal) narxini pasaytirishdir;

xaridlarni amalga oshirish (yetkazib beruvchilarni (ijrochilarni, pudratchilarni) aniqlash) va kontraktlar tuzish natijalari bo'yicha olingan byudjet mablag'larining

qo'shimcha tejalishi qo'shimcha foyda sifatida, shu jumladan innovatsion va yuqori texnologik mahsulotlarni xarid qilish hisobiga aniqlanadi (hisoblanadi) (qo'shimcha servis xizmatlari, mahsulotning yuqoriroq sifat tavsiflari va funksional ko'rsatkichlari, keyingi foydalanish xarajatlari pastroq, kafolatli xizmat ko'rsatish muddati uzoqroq va boshqalar);

kontraktlarni bajarishda byudjet mablag'larini tejash - bu kontraktida nazarda tutilgan tovar miqdori, ish yoki xizmat hajmi, yetkazib beriladigan tovarning sifati, bajariladigan ish, ko'rsatiladigan xizmat va kontraktning boshqa shartlarini o'zgartirmasdan kontrakt narxini pasaytirishdir.

Xaridlar xarajatlari samaradorligini baholash doirasida ko'rsatilgan ko'rsatkichlarni jamlash yo'li bilan rejalashtirishdan boshlab shartnomalarni bajarishgacha bo'lgan xaridlarning barcha bosqichlarida byudjet mablag'larining umumiy tejalishini hisoblash tavsiya etiladi.

Xarid xarajatlari samaradorligini tahlil qilish va baholash doirasida xaridlarni amalga oshirish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi raqobatni ta'minlash tamoyiliga buyurtmachi tomonidan rioya etilishini baholash maqsadga muvofiq.

Hisobot davrida xaridlarni amalga oshirishda raqobatni tahlil qilishda quyidagi ko'rsatkichlarni qo'llash tavsiya etiladi:

bitta xaridga berilgan buyurtmalarning o'rtacha soni - bu ishtirokchilar tomonidan berilgan buyurtmalarning umumiy sonining xarid tartib-taomillarining umumiy soniga nisbati;

bitta xarid uchun yo'l qo'yilgan buyurtmalarning o'rtacha soni - bu buyurtmachi komissiyasi tomonidan xarid qilish tartib-taomillariga yo'l qo'yilgan ishtirokchilar buyurtmalarining umumiy sonining xarid qilish tartib-taomillarining umumiy soniga nisbati;

yagona yetkazib beruvchidan (pudratchidan, ijrochidan) xaridlar ulushi - bu yagona yetkazib beruvchidan (pudratchidan, ijrochidan) xaridlarning umumiy xaridlar hajmiga nisbati (qiymat ifodasida).

Bunda hisob-kitoblardan dastlab raqobatsiz xaridlarni (ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilarning cheklangan soni mavjudligi, bozorda shartnoma majburiyatlarini bajarishga qodir bo'lgan yetkazib beruvchilar, pudratchilar, ijrochilarning yo'qligi, masalan, yirik markazlashtirilgan xaridlar bo'yicha) chiqarib tashlash zarur.

22. Xarid qilish xarajatlari natijadorligini tekshirish, tahlil qilish va baholash.

Ushbu bosqichda kontraktlar ijrosi doirasida xarid qilish xarajatlarining natijadorligini tekshirish va tahlil qilish, shuningdek davlat ehtiyojlarini ta'minlash natijadorligi uchun javobgarlik tamoyiliga rioya etilishini tahlil qilish amalga oshiriladi.

Xarid xarajatlarining natijadorligi deganda davlat ehtiyojlarini ta'minlashning belgilangan natijalariga (tovarlar, ishlar va xizmatlarning rejalashtirilgan miqdorda

(hajmda) va sifatda mavjudligi) va xaridlarni amalga oshirish maqsadlariga erishish darajasi tushuniladi.

Xarid xarajatlari natijadorligini baholash iqtisodiy natijadorlikni ham, erishilgan ijtimoiy-iqtisodiy samarani ham aniqlashni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy natijadorlik byudjet mablag'laridan foydalanishning erishilgan va rejalashtirilgan iqtisodiy natijalarini taqqoslash orqali aniqlanadi, ular aniq tovarlar, ishlar, xizmatlar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Byudjet mablag'laridan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy samarasi munitsipal ehtiyojlarni qondirish darajasini tahlil qilish va byudjet mablag'laridan foydalanilgan xaridlarni amalga oshirishning belgilangan maqsadlariga erishish asosida aniqlanadi.

23. Xarid qilish xarajatlarining qonuniyligini tekshirish.

Ushbu bosqichda xaridlarni rejalashtirish va amalga oshirish, kontraktlarni tuzish va ijro etish bosqichlarida nazorat obyekti tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va davlat xaridlari sohasidagi kontrakt tizimi to'g'risidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etilishini tekshirish va tahlil qilish amalga oshiriladi.

Xarid qilish xarajatlarining qonuniyligi deganda davlat xaridlari sohasidagi kontrakt tizimi ishtirokchilari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va davlat xaridlari sohasidagi kontrakt tizimi to'g'risidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etilishi tushuniladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo'lgan kontrakt tizimi to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishlari aniqlanganda tegishli axborot va materiallar davlat xaridlari sohasidagi nazorat organlariga ta'sir choralarini ko'rish uchun yuboriladi.

Davlat xaridlari sohasidagi nazoratning asosiy yo'nalishlari va masalalari mazkur Uslubiy tavsiyanomaning **1-ilovasida** keltirilgan.

Davlat xaridlarini amalga oshirishning turli bosqichlarida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar va tavakkalchiliklarning asosiy usullariga misollar mazkur Uslubiy tavsiyanomaning **2-4-ilovalarida** keltirilgan.

Nazorat tadbirlarini amalga oshirishga tizimli yondashuvni tashkil etish uchun amalga oshirilgan har bir davlat xaridining barcha asosiy bosqichlariga nisbatan yuqorida ko'rsatilgan ilovalardan foydalanish mumkin.

24. Noqonuniy harakatlar alomatlarini aniqlash.

Davlat xaridlari sohasida kontrakt tizimi ishtirokchilarining jinoyat tarkibi belgilariga ega bo'lgan, jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladigan noqonuniy harakatlari (harakatsizligi)ni aniqlash davlat xaridlari sohasida nazorat o'tkazishning asosiy maqsadi hisoblanmaydi.

Shu bilan birga, davlat xaridlari sohasidagi qonun hujjatlari buzilishi bilan bog'liq bo'lgan, jinoyat qonunchiligiga muvofiq ta'sir choralarini ko'rish zaruratini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan xavf omillarini hisobga olish va nazorat tartib-taomillarini amalga oshirishda ularni kuzatib borish zarur.

Agar davlat xaridlari sohasida nazoratni amalga oshirish jarayonida noqonuniy harakatlar (harakatsizlik) ga shubha paydo bo'lsa, aniqlangan holatlar bo'yicha tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilish lozim.

“O‘zbekko‘mir”AJning mas’ul xodimlari tomonidan aniqlangan buyurtmachilar va ishtirokchilar bir xil IP-manzildan foydalangan va til biriktirishdan dalolat beradigan korrupsiya holatlari, jumladan, davlat xaridlari bilan bog‘liq barcha huquqbuzarlik holatlari Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens-nazorat xizmati tomonidan batafsil tekshiriladi. Bunda tekshirishlarni amalga oshirishda ularning sodir etilishiga aloqador shaxslarni, huquqbuzarliklarning sabablarini va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlashga alohida e’tibor qaratilsin.

O‘tkazilgan tekshiruv natijalariga ko‘ra, aniqlangan holatlar to‘g‘risida “O‘zbekko‘mir”AJ rahbariyatini xabardor qilish, shuningdek, aybdor shaxslarga nisbatan javobgarlik choralari ko‘rish maqsadida (bitta huquqbuzarlik uchun bir shaxsga nisbatan bir nechta, masalan, ma’muriy va intizomiy javobgarlik choralari qo‘llanilishining oldini olish maqsadida) takliflar berilishi zarur. “O‘zbekko‘mir”AJ rahbariyati aniqlangan holatlar to‘g‘risida ma’lumotlarga huquqiy baho bersh maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlariga taqdim etilishi mumkin.

25. Amalga oshirilayotgan tekshiruv doirasida to‘plangan dalillarni baholashning umumiy masalalari.

Ushbu bosqichda quyidagilar amalga oshiriladi:

davlat xaridlari sohasida nazorat davomida olingan dalillarning yetarli va zarur ekanligini baholashi;

davlat xaridlari sohasida nazorat davomida olingan dalillarni ularning ahamiyatini hisobga olgan holda, belgilangan talablarga nomuvofiqlik faktlarini aniqlash maqsadida baholash;

davlat xaridlari sohasidagi nazorat predmetiga oid axborotning barcha muhim masalalar, qonun hujjatlari normalari va talablariga muvofiqligini baholash;

qonun hujjatlari talablariga nomuvofiqlik jiddiy hisoblanishini aniqlash. Bunda tegishli raqamli ko‘rsatkichlarning ahamiyati, holatlar, nomuvofiqlikning xususiyati va sababi, nomuvofiqlikning ehtimoliy natijalari va oqibatlari, nomuvofiqlikning ko‘lami yoki moliyaviy bahosi e’tiborga olinadi.

Amalga oshirilayotgan tekshirish doirasida to‘plangan dalillarni baholash va tekshirish natijalarini shakllantirish jarayonida olingan dalillarni tasdiqlash uchun nazorat obyektlari xodimlaridan yozma tushuntirishlar olishga yo‘l qo‘yiladi.

Davlat xaridlari sohasidagi nazorat natijalari bo‘yicha olingan faktik ma’lumotlar va axborot rasmiylashtiriladigan tekshirish dalolatnomalarida aks ettiriladi. Boshqa manbalardan olingan hujjatlar va materiallarni tahlil qilish natijalari bo‘yicha to‘plangan va tuzilgan ma’lumotlar ishchi hujjatlarda qayd etiladi.

26. Davlat xaridlari sohasida nazoratning yakuniy bosqichi.

Davlat xaridlari sohasidagi nazoratning yakuniy bosqichida nazorat o'tkazish natijalari umumlashtiriladi, o'tkazilgan nazorat bo'yicha hisobot tayyorlanadi, shu jumladan aniqlangan chetga chiqishlar, qoidabuzarliklar va kamchiliklarning sabablari aniqlanadi, ularni bartaraf etishga va davlat xaridlari sohasidagi kontrakt tizimini takomillashtirishga qaratilgan takliflar tayyorlanadi.

27. Davlat xaridlari sohasida nazorat natijalari bo'yicha takliflar (tavsiyalar) ishlab chiqish.

Davlat xaridlari sohasidagi nazorat natijalarini shakllantirishning yakunlovchi jarayoni takliflar (tavsiyalar) tayyorlashdan iborat. Agar tekshiruv davomida chetga chiqishlar, qoidabuzarliklar va kamchiliklar aniqlangan bo'lsa, chiqarilgan xulosalar esa davlat xaridlari sohasidagi nazorat obyektlarining ish sifati va natijalarini sezilarli darajada oshirish mumkinligini ko'rsatsa, ularni bartaraf etishga va davlat xaridlari sohasidagi nazorat obyekti faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan tegishli takliflarni (tavsiyalarni) tayyorlash zarur bo'lib, ular davlat xaridlari sohasidagi nazorat natijalari to'g'risidagi hisobotga kiritiladi, shuningdek taqdimnoma, ko'rsatma tarzida nazorat obyektiga yuboriladi.

Ushbu bosqichda quyidagilar talab qilinadi:

nazorat tadbiri natijalari bo'yicha mazmuni davlat xaridlari sohasida nazoratning qo'yilgan maqsadlariga muvofiq bo'lishi hamda uning natijalari bo'yicha chiqarilgan xulosalar va xulosalarga asoslanishi lozim bo'lgan takliflar (tavsiyalar) ishlab chiqish.

Takliflar (tavsiyalar) shunday ifodalanishi kerakki, ular:

aniqlangan chetga chiqishlar, qoidabuzarliklar va kamchiliklarni, shuningdek ularning kelib chiqish sabablarini bartaraf etishga qaratilgan bo'lsa;

nazorat obyektlari manziliga murojaat qilingan bo'lsa;

nazorat obyektlari tomonidan aniqlangan chetga chiqishlar, qoidabuzarliklar va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq choralar ko'rishga yo'naltirilgan;

ularni joriy etishdan baholash yoki o'lchash mumkin bo'lgan natijalarni olishga qaratilgan bo'lsa;

shaklan sodda va yetarli.

28. Davlat xaridlari sohasida nazorat natijalari to'g'risidagi hisobotni rasmiylashtirish.

Davlat xaridlari sohasidagi nazorat natijalari to'g'risidagi hisobotda xaridlar xarajatlarining qonuniyligi, maqsadga muvofiqligi, asoslanganligi, o'z vaqtida amalga oshirilganligi, samaradorligi va natijadorligi to'g'risida batafsil axborot, nazorat tadbiri natijalari bo'yicha xulosalar va takliflar, shu jumladan ehtimoliy oqibatlar va tavsiyalar bo'lishi kerak.

Davlat xaridlari sohasidagi nazorat natijalari to'g'risidagi hisobot umuman davlat xaridlari sohasidagi kontraktlar tizimini takomillashtirishga qaratilgan takliflarni (tavsiyalarni) o'z ichiga olishi mumkin.

29. “O‘zbekko‘mir”AJning Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens-nazorat xizmati va Ichki audit bo‘limlari har chorakda belgilangan muddatlarda ular tomonidan davlat xaridlari sohasida amalga oshirilgan nazorat natijalari to‘g‘risidagi o‘z hisobotlarini “O‘zbekko‘mir”AJ bosh direktoriga hamda “E-Anticor.uz” elektron platformasi orqali Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga taqdim etib boradi.

**6. Davlat xaridlari sohasida nazorat natijalari to‘g‘risidagi
umumlashtirilgan
axborotni shakllantirish**

30. “O‘zbekko‘mir”AJda davlat xaridlari sohasida nazorat bo‘yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens-nazorat xizmati va Ichki audit bo‘limi aniqlangan qoidabuzarliklar va kamchiliklarning sabablarini aniqlaydi, ularni bartaraf etishga va davlat xaridlari sohasida kontrakt tizimini takomillashtirishga qaratilgan takliflarni tayyorlaydi hamda ko‘rsatib o‘tilgan takliflarning amalga oshirilishi to‘g‘risidagi axborotni tizimlashtiradi.

Davlat xaridlari sohasidagi nazorat natijalari to‘g‘risidagi umumlashtirilgan axborot “O‘zbekko‘mir”AJ ning rasmiy veb-saytida joylashtiriladi.